



UDK: 634.75:581.143.6 (575.1)

SUGDIYONA SHUMTOLI (FRAXINUS SOGDIANA BUNGE)
O'SIMLIGINI QALAMCHALARINI EKISH MUDDATLARI VA
URIG'IDAN UNUVCHANLIK DARAJASINI ANIQLASH
ОПРЕДЕЛЕНИЕ СРОКОВ ПОСАДКИ ЧЕРЕПКОВ И СТЕПЕНИ
ПЛОДОВИТОСТИ СЕМЯН СОРГО (FRAXINUS SOGDIANA BUNGE)
DETERMINATION OF CUTTINGS PLANTING TIME AND SORGHUM
SEED FECUNDITY (FRAXINUS SOGDIANA BUNGE)

Ilmiy rahbar q.x.f.f.d

Eshanqulov Bobomurod Inayativich Tayanch doktorant

Zokirov Dostonbek Rustamjon o'g'li

O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti

instituti tayanch doktoranti

O'rmon xo'jaligini rivojlantirish innovatsiya markazi

dostonbekzokirov42@gmail.com

Annotatsiya: Jizzax viloyati G'allaorol tumanida joylashgan Pistachilik ilmiy tajriba stansiyasida urug'idan ko'paytirib yetishtirilayotgan Sug'diyona shumtoli (*Fraxinus sogdiana* Bunge.) o'rmon xo'jaliklarida madaniy o'rmon barpo etish va yog'och maxsulotini yaratish va ularning istiqbolli navlarini yaratish bo'yicha ilmiy tajribalar olib borilmoqda.

Аннотация: На Фисташковой научно-опытной станции, расположенной в Галлаарольском районе Джизакской области, в лесном хозяйстве ясеня согдийского (*Fraxinus sogdiana* Bunge.), размножаемого семенами, проводятся научные эксперименты по созданию культурного леса и созданию древесной продукции и ее перспективных сортов.



Abstract: At the Pistachio Scientific Experimental Station, located in the Gallaarol district of the Jizzakh region, in the forestry of Sogdian ash (*Fraxinus sogdiana* Bunge.), propagated by seeds, scientific experiments are being carried out to create a cultivated forest and the development of wood products and their promising varieties.

Kalit soʻzlar: Sugʻdiyona shumtolining urugʻ unuvchanlik darajasi, ildiz hosil boʻlish, vegetativ koʻpaytirish, agrotexnika, sugʻorish muddatlari .

Ключевые слова: Всхожесть семян согдийской головни, корнеобразование, вегетативное размножение, агротехника, сроки полива.

Key words: Seed germination rate of Sogdian smut, root formation, vegetative propagation, agrotechnology, irrigation timing.

Kirish: Oʻzbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga moʻljallangan yangi rivojlanish strategiyasida “Respublika hududlarida oʻrmonlar maydonini kengaytirish va oʻrmon fondi yerlardan samarali foydalanish” muhim vazifa sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, sugʻdiyona shumtoli koʻchatlarini intensiv usulda yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish va mamlakatimiz oʻrmon xoʻjaligi tizimiga ilmiy asoslangan holda joriy etish dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktabrdagi PQ-4850-son “Oʻzbekiston Respublikasida oʻrmon xoʻjaligi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi hamda 2021 yil 21 yanvardagi PQ-4960-son “Oʻrmon xoʻjaligida ilm-fanni rivojlantirish va ilmiy-tadqiqot ishlarini ragʻbatlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mazkur sohadagi ilmiy-tadqiqotlarni asoslashda muhim huquqiy poydevor hisoblanadi. Shu sababli mazkur ilmiy-tadqiqot ishi Oʻzbekistonning oʻrmon xoʻjaligi, ekologiyasi va bioiqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qoʻshadi,



shuningdek, sug'diyona shumtoli turining samarali va ustuvor usulda yetishtirish texnologiyasini yaratishga yordam beradi.

Sug'diyona shumtoli (*Fraxinus sogdiana* Bunge.) ko'plab mamlakatlarda tabiiy va madaniy holda o'stiriladigan, o'rmon meliatsiyasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan daraxt turlaridan biridir. Xitoy, Pokiston, Afg'oniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston kabi mamlakatlarda ushbu tur tabiiy ravishda tarqalgan bo'lib, dala ekinlari atrofidagi iho'ta o'rmonlari sifatida keng ekiladi. Bu daraxtzorlarning asosiy vazifasi tuproq degradatsiyasi va

sho'rlanishini kamaytirishdan iborat bo'lgani uchun ushbu turga qiziqish ortib bormoqda. Bundan tashqari, sug'diyona shumtoli yog'ochi duradgorlik va mebel ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi. Dunyo bo'yicha sug'diyona shumtoli Qozog'istonning Balkhash, Jung'or, Zail, Kungey va Ters tog'larida, G'arbiy Tyan-Shan hududida, shuningdek, O'zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida kichik daraxtzorlar ko'rinishida uchraydi [20]. Sug'diyona shumtolidan o'rmon barpo etish, o'rmon meliatsiyasida foydalanish, ko'kalamzorlashtirish, yog'och olish va ko'chatlarini yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Hozirgi kunda jahon miqyosida shumtol daraxtlarini saqlash, madaniy o'rmonlar barpo etish, o'rmon meliatsiyasi va ko'chat yetishtirish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston kabi mamlakatlarda ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, sug'diyona shumtoli kichik o'rmonlarini saqlab qolish, yog'ochni qayta ishlash, o'rmon meliatsiyasida va ko'kalamzorlashtirishda foydalanish, standart ko'chatlar yetishtirish bo'yicha bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Maqsad: Jizzax viloyatining tipik bo'z tuproqli hududlarida so'g'diyona shumtoli (*Fraxinus sogdiana* Bunge.) ko'chatlarini intensiv usulda yetishtirish texnologiyasini ishlab chiqishdir. Toshkent, Sirdaryo, Jizzax viloyatlarida



o'sayotgan so'g'diyona shumtoli daraxtlari va Pistachilik ilmiy-tajriba stantsiyasi ko'chatxonalarida yetishtirilayotgan ko'chatlar olingan.

Tadqiqot predmeti — urug'larning laboratoriya unumdorligi, urug'larni ekish muddati va chuqurligi, mineral o'g'itlar me'yori, sug'orish rejimi va ko'chatlarga mexanik ishlov berish usullari hisoblanadi.

Jizzax viloyatining tuproq-iqlim sharoitlari uchun so'g'diyona shumtoli ko'chatlarini yetishtirish samarali yerishtirish bo'yicha olib borilayotgan tajribalar turli xil variantlar asosida ilmiy tajribalar olib borilmoqda..

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili: Sog'diyona shumtoli urug'larini ekish bo'yicha maqbul texnologiyani ishlab chiqish urug'larni saqlash, ekish muddatlari, ekish chuqurligi, nihollarni unib chiqishini tezlashtiruvchi moddalarning ta'siri ularni urug' ekilgan maydonlar tuproq iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda, 1 gektar maydon tanlab olinib tanlab olingan maydonlar 4 qismga bo'lib olish ishlari amalga oshirildi. Birinchi maydonga xech qanday kimyoviy va biostumlayotrlar ta'siri etmagan xolda urug'lar ekish ishlari

amalga oshirilib qator oralari 90x70 sxemada agatlar olinib ko'chat oralig'i 30-40 sm xisobida 3575 dona ko'chatlar tayyorlab ekish ishlari amalga oshirildi. Ikkinchi maydonga xam 13575 dona urug'lar ekilib ul;arning unuvchanlik darajasini oshirish maqsadida tuproq bilan biogumuslar yordamida aralashtirilgan xolda ekish ishlari amalga oshirildi. Uchunchi tayyorlab olingan maydon esa qum biogumus va tuproqlar aralashmalaridan iborat bo'lgan maydonlar tayyorlab olinib ularga 3575 dona ko'chat ekilib ularni rivojlanishi bo'yicha organik mineral o'g'itlar ta'sirida sug'orish ishlari olib borildi.

To'rtinchi maydonga Biogumus va qum aralashmalarida ekilgan urug'lar dala amydonlariga olib chiqilib 2850 dona ko'chatlar ekish ishlari olib borildi.

Xulosa



Fraxinus sogdiana Bunge o'zining biologik barqarorligi va amaliy ahamiyati bilan o'rmon xo'jaligida muhim o'rin egallaydi. Ko'chat yetishtirish texnologiyasi oddiy va ekologik sharoitga mos holda olib borilishi mumkin. O'simlikdan samarali foydalanish iqlim o'zgarishiga moslashish va barqaror landshaftni saqlab

qolishda muhim vosita bo'lishi mumkin

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Beydeman I.N. O'simliklar va o'simlik jamoalari fenologiyasini o'rganish metodikasi. Novosibirsk: Fan, 1974. - 156 q.
2. Bulygin N.E. Dendrologiya. - Leningrad: Agrosanoat, 1991. - 291-MODDA.
3. GOST 13056.11-68 "Daraxtlar va butalar urug'lari. «Sifatni hakamlilik yo'li bilan aniqlash qoidalari» (1968).
4. B.A. Dospexov Dala tajribasi metodikasi. - M: Agropromizdat, 2011.- 351 b.
5. Kapper V.G. Daraxt turlarining meva yetishtirilishi yuzasidan har yili muntazam kuzatuvlarni tashkil etish to'g'risida//O'rmon tajribasi ishlari bo'yicha mehnatlar. – 1930. - 103-147-B.
6. A.Qaimov, E.T. Berdiyev, Dendrologiya. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. - 252-255 b.
7. Kostyakov A.N. O'rta Osiyo tuproqlarini agrokimyoviy, agrofizik va mikrobiologik tekshirish usullari" (1977).
8. Kostyakov A.N. Melioratsiya asoslari. Moskva, 1951.- B.140-142.
9. Qalandarov M.M. Daraxtzorlarda ilmiy tadqiqot ishlarida taksatsiyaga oid o'lchashlar va hisoblash usullari//O'zbekiston agrar fan axboroti jurnali. - Toshkent, 2022. – № 4. - 138-146 b.
10. Novoseltseva A.I. O'rmon urug'chiligi ishlari bo'yicha huquqshunos. - nashriyot: O'rmon sanoati, 1978. - 35-105.14-B.



11. Yefimov V.N. O'g "it tizimi: Darslik//V.N.Efimov, I.N.Donskix, V.P.Sarenko: Boshq. S, 2002. -150 dan.
12. Pobedov V.S., Shimanskiy P.S. va boshqalar. O'rmon xo'jaligida mineral o'g "itlarni qo'llash bo'yicha ma'lumotnoma. «O'rmon sanoati» nashriyoti, Moskva, 1977-yil 62-75-son.
13. N.I. Yakimov, V.K. Gvozdev, A.N. Prxodskiy O'rmon ekinlari va ihota o'rmonlarini ko'paytirish. - Minsk, - 2007. S.- 24-90.